

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

TURSUNOVA ZARNIGOR RUSTAMOVNA

**INTEGRATSIYALASHGAN MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHGA
IXTISOSLASHGAN BIZNES TUZILMALARINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление авторефераата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in economics sciences**

Tursunova Zarnigor Rustamovna

Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes
tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Турсунова Зарнигор Рустамовна

Совершенствование механизмов управления бизнес-структурами,
специализирующимися на комплексном производстве продукции 27

Tursunova Zarnigor Rustamovna

Improving management mechanisms for business structures specializing in
integrated product production 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

TURSUNOVA ZARNIGOR RUSTAMOVNA

**INTEGRATSIYALASHGAN MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHGA
IXTISOSLASHGAN BIZNES TUZILMALARINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3614 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ((www.tsue.uz) va «ziyonet» axborot-ta'lif portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yo'ldoshev Nuritdin Qurbanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Raximova Dilfuza Nigmatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xakimov Ziyodulla Ahmadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «16» 09 soat 14:00dagি majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1740 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239 - 28 - 75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil «25» 08 dagi 40-raqamli reestr bayonnomasi).



G.Q. Abdurahmonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A.Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyo mamlakatlarida integratsiyalashgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy menejment strategiyalaridan foydalanib, birlamchi xom ashyodan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2023 yilda jahon to'qimachilik mahsulotlari bozori qariyb 993,6 milliard dollarni tashkil qildi. 2027 yilga kelib, uning qiymati 1,3 trillion dollardan oshishi kutilmoqda. 2023 yilda jahon kiyim-kechak bozori taxminan 1,5 trillion dollarni tashkil etdi. 2027 yilga kelib uning qiymati deyarli 2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. To'qimachilik va tikuvchilik biznesi butun jahon iqtisodiyotining 2-3% ni tashkil qiladi¹.

To'qimachilik sanoati tobora rivojlanib, tabiiy tolalar va kiyim-kechak sohasida keng qo'llanilishi tufayli tarmoq bo'yicha yetakchi bo'lib oldi va 2023 yilda daromadning 44,1% aynan shu sohaga to'g'ri keldi. Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar, ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan iste'molchilar talabi va tabiiy tolalar narxining oshishi tufayli global to'qimachilik bozori yanada kengayishi kutilmoqda². Juhon tajribasi ko'rsatishicha, iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish samaradorligi, raqobatdoshligini hamda aholi farovonligi darajasini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqbolli integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish orqali jahon bozorida yangi segmentlarga kirib borish va ularni kengaytirish masalalari dolzarb bo'lib, bu yo'l bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish hamda jahon mehnat taqsimotida munosib o'rin egallash rejalashtirilmoqda. Zero, global iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvini mamlakatimiz iqtisodiyotida ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash va yangilash, innovatsion va yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish orqali ta'minlash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi 2023 yil 11 sentyabridagi PF-158 sonli Farmonida ko'rsatilgani kabi, sanoatning "drayver" sohalarini rivojlanтиrish va hududlarning sanoat salohiyatlarini to'liq ishga solish hamda sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinalarini yaratish, to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga qadar oshirish hamda yuqori sifatli matoga bo'lgan talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi vazifalar qo'yilgan³. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar, ayniqsa,

¹ Globaltextiletimes.com

² Textile-marketGlobalTextileMarket.uz

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabridagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 sonli Farmoni

iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, eksport faoliyatini erkinlashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalari, jumladan to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini kengaytirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabridagi PF-158 sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalar shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvaridagi PQ-4949-sod "2021 yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martidagi 253-sodli "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori⁴ va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martidagi 253-sodli "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori⁵ hamda ushbu yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada tayanch vazifasini o'taydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik davlat va huquqiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy hamda madaniy taraqqiyoti, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyot sohasida integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlari P.Maskell, M.Lorenzen, M.Storper, M.Enrayt, S.Resenfeld, M.Porter, T.Andersen, K.Ketels, S.Breschi, P.Druker, M.Castells, E.Canari, YU.Kimura, P.Krugman, G.Mensch, K.Kutsun, A.Kuchiki, B.Lundval, R.M.Marsh, hamda U.Migari, O.Solvela, G.Uayt, K.Freemann, S.Xarrison, J.Xenderson, D.Xiljers, J.Shumpeter⁶ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

⁴ Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi".

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 253-sodli "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

⁶ Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E.Porter // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E.Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M.Storper. - N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25. De Propis, Lisa and Driffeld, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game?// Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5.

Korxonalarda ishlab chiqarishni integratsiyalash shakllari bilan shug‘ullangan zamonaviy olimlar orasida D.P.Barsukov, D.M.Begov, V.I. Vagizova, V.V.Ilin, Yu.A.Axenbax, N.N.Shutko, G.D.Boush, L.L.Butuzova, R.R.Toxchukov, E.V.Chemodanov, A.Fridman, A.A.Migranyan, T.V.Uskova, Ye.V.Volkodavova, T.I.Maksimova, L.I.Pronyaeva, O.A.Fedotenkova, A.V.Pavlova, V.V.Pechatkin, M.A.Nikolayev⁷ va boshqalarni alohida aytib o‘tish mumkin.

Mahalliy olimlar orasida integratsiyalashgan korxonalar hamda to‘qimachilik korxonalari, boshqaruvin muammolari S.G‘ulomov, M.Sharifxo‘jayev, Yo.Abdullayev, N.Yo‘ldoshev, M.Boltabayev, Z.Gaibnazarov, Z.Xakimov, S.Yusupov, X.Qodirov, D.Qosimova, K.Xonkeldiyeva, B.Tursunov, F.Azimova, I.Toshpulatov⁸ kabi iqtisodchi-olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Shu bilan birga, bu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko‘plab tadqiqotlari mavjud bo‘lishiga qaramay, integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda qo‘srimcha tadqiqotlar talab etiladi.

⁷ Барсуков Д. П. Формирование промышленного кластера: теоретические и методические аспекты: монография/ Д. П. Барсуков, В. С. Курдяшов: под общ. ред. Д. П. Барсукова. - СПб.: СПбГУКиТ, 2014. - 170 с. 12. Барсуков Д.П., Караева Ф.Е., Шогенова И.Б. Организационно-экономические аспекты развития региона в условиях кластеризации// Петербургский экономический журнал. 2019. №1. Бегов Д.М. Эффективность формирования регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе, 2020. Горетов И.Н. Кластерные технологии в управлении АПК// Вестник ЧГУ. 2009. №1. Вагизова В.И. Кластеризация как инновационная форма диверсификации хозяйственных систем и фактор повышения конкурентоспособности экономики Татарстана// Проблемы современной экономики. - 2009. - № 4. В.В. Ильин “Методы формирования кластеров в промышленности” Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ю.А.Ахенбах “Формировавшие и развитие научно-производственных кластеров в регионе: теория, методология, практика” Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Н.Н Шутко “Управление процессами формирования кластеров в мезоуровневых системах” Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Г.Д. Боуш “Формирование и развитие промышленных кластеров: теория и методология” диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. Л.Л. Бутузова “Формирование производственно-инновационных кластеров промышленных предприятий” Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.

⁸ Gulyamov S.S. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T: IQTISODIYOT, 2019.; Sharifxo‘jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001 y.; Yo‘ldoshev N.K., Zaxidov G.E. Menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 b.; Boltabaev M.R. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: doktorlik dissertasiysi. – T.: TDIU, 2005. – 242 b.; Maxmudov N.M., Akobirova D. Strategiya innovasionnogo razvitiya promishlennosti Respublikи Uzbekistan v period modernizazii ekonomiki. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2011. – 352 b.; Xakimov Z.A. Engil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2017. – 141 b.; Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2018. – 144 b.; Toshpulatov I.A. To‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T.: TDIU, 2019. –137 b. Kadirov X. Tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini xalqaro marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Qosimova D. "O‘zbekneftgaz" MXK ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanishni boshqarish Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya 2006. Xonkeldiyeva K.R. To‘qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruvin mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Azimova F.P. To‘qimachilik sanoati korxonalarini faoliyati samaradorligini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog’liqligi. Dissertatsiya ilmiy ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi O’zbekiston Respublikasida integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog’liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Integratsiyalashgan korxonalarda boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari;

Ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyalash turlari hamda ularni boshqarishni yoritish;

Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari va klaster modellarining xorij tajribalari;

Paxta tolasiga ishlov beruvchi korxonalarining integratsiyalashgan tuzilmalarini o’rganish;

Integratsiyalashgan biznes tuzilmalarda mahsulotlar xarajatlarini qisqartirish bo’yicha yondashuv ishlab chiqish;

Integratsiyalashgan sanoat korxonalarida materiallar oqimini boshqarishning zamonaviy vositalarini taklif etish;

Integratsiyalashgan korxonalar tuzilmasini boshqarishda divizional tuzilmalarni qo’llash bo’yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «O’zto’qimachiliksanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalarining integratsiyalashuvini boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxta xom-ashyosiga ishlov berish jarayonining turli bosqichlarida boshqaruvni tashkil etish masalalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, tahlil va sintez, solishtirma va qiyosiy tahlil, statistik va ekonometrik uslublar, xususan, korrelyatsiya, regressiya va variatsion tahlil uslublari qo’llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O’zto’qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta xom ashysini qayta ishlashning turli bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarini boshqarishni funksional tuzilmadan mahsulot turiga va eksport hududlariga moslashtirish zarurligi asoslangan;

“UZTEX GROUP” klasteri korxonalarida ishlab chiqarish personali sonining o’sishi ip-kalava hajmiga ijobjiy, boshqaruv xodimlarining soni o’sishi salbiy ta’sir ko’rsatganligini hisobga olib, ushbu korxonalarda mehnat resurslarini qayta tarkiblashtirish tavsiya etilgan;

“O’zto’qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini ko’tarish uchun korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatlashtirish tavsiya etilgan.

O’zbekistonda to’qimachilik sanoatining 2030 yilgacha rivojlanish prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

iqtisodiy rivojlanishda integratsiyaning ahamiyati ochib berilgan;

O‘zbekistonda paxta tolasiga ishlov berish bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarning rivojlanishi tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan;

ixtisoslashgan korxonalarni integratsiyalash usullari tadqiq etilgan;

paxta tolasiga ishlov beruvchi korxonalarning integratsion tuzilmalari o‘rganilgan;

integratsiyalashgan tuzilmalarda mahsulotlar xarajatlarini samarali boshqarish va ularni kamaytirish hamda xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha yondashuv ishlab chiqilgan;

integratsiyalashgan sanoat korxonalarida materiallar oqimini boshqarishning zamonaviy usullari taklif etilgan;

integratsiyalangan korxonalarni boshqarishda divizional tuzilmalarni qo‘llash bo‘yicha amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ish jarayonida qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar tasdiqlanganligi, natijalarning iqtisodiy nazariyalarga muvofiqligi, uyushma tasdiqlanganli bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalar integratsiyalashgan mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin. Bunday yondashuv, nafaqat biznes jarayonlarini samarali boshqarish imkon bilan birga sanoatning ilmiy asoslarini mustahkamlashga ham yordam beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, uning natijalarini to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirishda, shuningdek, integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarishning samaradorligini oshirishda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishdan iborat. Ushbu yondashuvlar, sanoatdagi raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Davlatning sanoat sohasidagi siyosatini, iqtisodiyot sohasining to‘qimachilik sohasiga oid dasturlarini ishlab chiqishda, mintaqaviy darajada taklif etilayotgan metodologiyada integratsiyalash tizimini takomillashtirishda, boshqaruv tuzilmalari samaradorligini oshirish yo‘llari hamda ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda, mamlakat va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda foydalanish mumkin. Bu ishda taklif qilingan integratsion mahsulotni ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining to‘qimachilik sektorini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta xom ashyosini qayta ishlashning turli bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalarni boshqarishni funksional tuzilmadan mahsulot turiga va eksport hududlariga moslashtirish zarurligi bo‘yicha takliflar “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar amaliyotiga joriy etish uchun qabul qilingan (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 9-aprel 2025 yildagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etish

natijasida “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalarda boshqaruv tuzilmalari ixchamlashib, iqtisodiy samaraga ya’ni 452751989,8 so‘m iqtisod qilishga erishildi.

“UZTEX GROUP” klasteri korxonalarida ishlab chiqarish personali sonining o‘sishi ip-kalava hajmiga ijobiy, boshqaruv xodimlarining soni o‘sishi salbiy ta’sir ko‘rsatganligini hisobga olib, ushbu korxonalarda mehnat resurslarini qayta tarkiblashtirish tavsiya etilgan. Ushbu taklif qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2025 yil 9-apreldagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi).

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini ko‘tarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatlashtirish tavsiya etilgan. (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2025 yil 9-apreldagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi). “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini ko‘tarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini muvozanatlashtirish tavsiya etilgan. Ushbu taklif amaliyotga joriy qilinishi natijasida ushbu klaster korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffisienti 0,12 ga ko‘tarildi.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining 2030-yilgacha rivojlanishining prognoz ssenariylari “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi faoliyatiga joriy etildi. (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 9-aprel 2025 yildagi №03/12-772 joriy etish ma’lumotnomasi). Natijada uyushmaning 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan maqolalar chop ettirildi, shuningdek 5 ta ma’ruza tezisi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida amalga oshirilgan tadqiqotning dolzarbliji va zarurligi asoslanib, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb

nomlangan birinchi bobida integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishning nazariy asoslari yoritilib, ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyalash turlari va ularni boshqarish usullari keltirilib mazmunan olib berilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan tuzilmalarni boshqarishni takomillashtirishga nisbatan xorijiy modellar yoritilgan.

Ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash hozirgi global raqobat sharoitida sanoat integratsiyasi orqali biznesni rivojlantirishning yo‘nalishlari muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishda integratsiyadan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishning samarali usuli sifatida qaraladi. Integratsiyalash raqobatbardoshlikni oshirgan holda bir biriga yaqin bo‘lgan firma va tarmoqlarning birlashmalarini shakllantirish jarayonidan iborat. Integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni minimallashtirish integratsiyaning asosiy omili sifatida izohlanadi.

Yirik integratsiyalashgan korxonalar ko‘pincha *klasterlash* jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Integratsiyalashgan korxona deganda biz tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish bilan shug‘ullanadigan, faoliyatni markazlashlashtirilgan muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan qo‘shimcha qiymatni oshirish bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subyektlari to‘plamini tushunishni taklif qilamiz. Integratsiyalashgan korxonalarining eng keng tarqalgan namunasi klasterdir.

1-jadval

Klaster faoliyatini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar modellari⁹

Davlatlar	Model xususiyatlari
Italiya modeli	Sanoat klasterlarida ko‘p sonli kichik firmalar o‘zining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida birlashtiriladi. Bu model yuqori texnologik darajaga ega bo‘limgan mahsulotlar uchun qo‘llaniladi
Yaponiya modeli	Klasterda firma lideri mavjud bo‘lib, ishlab chiqarish va turli yetkazib beruvchilar bilan integratsiya zanjiri yaratiladi. Bu model ishlab chiqarilishi texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar uchun qo‘llaniladi.
Finlyandiya modeli	Klasterda biznesni xalqarolashtirish va innovatsiyalardan yuqori darajada foydalaniladi. Bu model tabiiy resurslari nisbatan tanqis bo‘lgan mamlakatlar uchun qo‘llaniladi.
AQSh modeli	Firmalar orasida raqobat kuchli bo‘lib, yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat va katta miqdordagi ishlab chiqarish tannarxning pasayishiga sabab bo‘ladi.
Hindiston modeli	Asosan chet ellik investorlar zamonaviy texnologiyalar olib kirib, dunyo bozoriga chiqishga yordam beradi.

Klasterlar faoliyatini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar modellarini o‘rganish tadqiqotimiz uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki turli mamlakatlar klasterlashni o‘z iqtisodiy, sanoat va innovatsion rivojlanish strategiyalariga mos ravishda amalga oshiradilar. Tadqiqotimizda, har bir mamlakatning o‘ziga xos

⁹ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

modellarini tahlil qilgan holda, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganib, mamlakatimiz uchun eng samarali modelni aniqlashga intilamiz. Yuqoridagi 1-jadvalda klaster faoliyatini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar modellari keltirilgan bo'lib, bu bizga turli yondashuvlarni o'rganish imkoniyatini yaratadi.

2-jadval

Hududiy integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini tashkil etishdagi afzalliklar¹⁰

Tuzilma bilan aloqadorligi	Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalar bilan bog'liqligining afzalligi
Hudud administratsiyasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Soliq to'lovchilar miqdori oshadi. 2. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi diversifikatsiyalash orqali tadbirkorlik subyektlari bilan aloqalar mustahkamlanadi. 3. Hududlarning xarajatlarini strategik rejalashtirish motivatsiyasi kuchayadi. 4. Innovatsiyalarni joriy etish hisobiga hududning rivojlanishi tezlashadi. 5. Hudud aholisining farovonligi darajasi yaxshilanadi.
Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishda biznes tuzilmalar tarkibidagi korxonalar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Takomillashgan infratuzilma shakllanadi. 2. Tadqiqotlar va ishlanmalar yaratish uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi. 3. Tuzilmalar tarkibidagi korxonalar bilan hamkorlikda xizmatlarni taklif etish orqali xarajatlar kamayadi. 4. Xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli chiqish uchun imkoniyatlar kengayadi. 5. Mehnat unumдорligi va innovatsiyalarni joriy etish darajasi ortadi. 6. Bir-birini to'ldiruvchi aktivlardan foydalanuvchi korxonalar o'rtaсидagi hamkorlik natijasida bilim va tajriba almashish kuchayadi.
Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalar rivojlanayotgan mintaqasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mahalliy mahsulot va xizmatlar uchun bozor kengayadi. 2. Yuqori darajadagi tashqi migratsiyaning oldi olinadi. 3. Mintaqaning mavjud resurslaridan ratsional foydalanishning yo'liga qo'yilishi hisobiga uning barqaror rivojlanishi uchun sharoitlar yuzaga keladi. 4. Korxonalarining innovatsion faolligi ortishi natijasida fan va ta'lim sohalari rivojlanadi.

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko'rish mumkinki, integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan biznes tuzilmalarini tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiy rivoji uchun muhim hisoblanadi. Hududiy integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarish tizimi – bu zamonaviy iqtisodiyotda yuqori samaradorlikka erishish, resurslardan oqilona foydalanish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan innovatsion va strategik yondashuv hisoblanadi. Ushbu tizim doirasida mahsulot ishlab chiqarishning barcha bosqichlari – xom ashyoni tayyorlash, qayta ishlash, kadr qo'shish, tayyor mahsulotga aylantirish, saqlash, logistika va sotish - bir hudud ichida integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Bu nafaqat iqtisodiy xarajatlarni kamaytiradi, balki ishlab chiqarish zanjirining samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi. Aholi bandligini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni

¹⁰ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

qo‘llab-quvvatlash, viloyat va tumanlar kesimidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, infratuzilmani rivojlantirish kabi ijtimoiy va mintaqaviy ahamiyatga ega vazifalarni ham hal etadi.

Mintaqa bo‘yicha ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi

Ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasining umumiy maqsadi:

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini quyidagilar orqali ta‘minlash:

ishlab chiqarishni barqarorlashtirish

yetkazib berish va sotish rentabelligini oshirish

biznesni birlashtirish va milliy iqtisodiyot darajasida, korxonalar, firmalar, kompaniyalar va korporatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro to‘siqlarni bartaraf etish

yangi bozorlar, innovatsiyalar va istiqbolli texnologiyalarga kirishni ta‘minlash

Integratsiya jarayonlarning ko‘rinishlari:

Vertikal

Gorizontal

Diagonal

Integratsiyaning tashkiliy shakllari

Kooperatsiyalar, assosatiyalar, birlashmalar, xoldinglar

Kooperativlar, trestlar, sindikatlar, konsernlar, konglomeratlar

moliyaviy sanoat guruhlari, klasterlar

Usullar

Korporativ

Kelishuv

Nazorat

Iqtisodiy afzalliliklar:

Bosh kompaniya hududida soliqqa tortishni optimallashtirish va xarajatlarni boshqarish bilan yagona narx siyosati

Korxonalarni individual soliqqa tortish va boshqa ishtirokchilar bilan narx siyosatini muvofiqlashtirish

Korxonalarni individual soliqqa tortish va narx siyosatini muvofiqlashtirish eng kuchli kompaniya manfaatlariga javob beradi

Hududiy integratsiya mexanizmi obyektlari:

Moliyalashtirish – moliyaviy resurslarning mayjudligini ta‘minlash, manbalarni aniqlash va ishlab chiqarish va kredit fondlarini shakllantirish;

Tashkiliy-iqtisodiy, tartibga solish, axborot ta‘minoti

Imtiyozlar berish – hududiy ishlab chiqaruvchilariga shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish

1-rasm. Mintaqada ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi iqtisodiy mexanizmining tarkibiy modeli¹¹

Mintaqaviy integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va sanoatning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni

¹¹ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash va mintaqaviy iqtisodiyotning umumiyligi rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Mintaqaviy integratsiyaning muhim jihatlaridan biri to'qimachilik sanoati bilan bog'liq bo'lib, 1-rasmida ushbu sanoatning mintaqasi muhiti bilan o'zaro ta'siri ko'rsatilgan. Bu model mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni oshirish va sanoat rivojlanishini jadallashtirish uchun samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Tashqi muhit va uning to'qimachilik sanoatiga ta'siri					
Ijtimoy-madaniy omil	Shart-sharoit	Tamoyil	Talablar	Normalar	Qonuniy va tartibga solish omili Xalqaro omil
	To'qimachilik sanoatining ichki muhiti				
Texnologik omil	Asosiy ishtirokchilar	Bog'lovchi komponentlar	Norasmiy institutlar		
	-asosiy ishlab chiqarish tashkilotlari -sanoat tashkilotlarini qo'llab quvvatlash -ilmiy tashkilotlar -jamoat tashkilotlari	-axborot va innovatsion aloqalar -ishlab chiqarish va yetkazib berish aloqalari -ekologik va iqtisodiy -xom-ashyo aloqalari -iqtisodiy boshqaruv aloqalari -texnologik va ishlab chiqarish aloqalari	-korporativ biznes madaniyati -kommunikatsiya -inson kapitali -taskilotlar kapitali		
	Ekologik iqtisodiy omil				

Ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasining mintaqasi rivojlanishiga ta'siri				
Aholi bandligi va daromadlarini o'sishini rag'batlantirish	Hududiy byudjet daromadlarini o'sishini rag'batlantirish	Ijtimoiy va transport infrastrukturalini rivojlanirishni rag'batlantirish	Investitsiyalar oqimini rag'batlantirish	To'qimachilik sanoatida qo'shilgan qiymatni o'sishini rag'batlantirish
Barqarorlikni ta'minlash				

2-rasm. To'qimachilik sanoati va mintaqaviy muhitning o'zaro ta'siri mexanizmi modeli¹²

Mintaqaviy integratsiyalashgan ishlab chiqarish korxonalari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan tartibli integratsiyalashgan tuzilmadan iborat. 2-rasmida mintaqasi muhiti va to'qimachilik sanoatining o'zaro ta'siri mexanizmining modeli keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Paxta tolasiga ishlov berish bosqichlarini integratsiyalash tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida paxta tolasiga ishlov

¹² Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

berish bosqichlariga ixtisoslashgan korxonalar tahlili, O‘zbekistondagi ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy imkoniyatlari hamda O‘zbekistondagi integratsiyalashgan korxonalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan, integratsiyalashgan korxonalar boshqaruv tuzilmasi baholangan.

3-jadval

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan korxonalar faoliyatining SNW tahlili¹³

№	Ko‘rsatkichlar	Baholash			Izohlar
		S	N	W	
<i>Tabiiy – geografik</i>					
1	Xom- ashyo	1			Paxta xom-ashyosini yetishtirish uchun tuproq sharoitining mosligi
2	Xom-ashyo hamkorligi		1		Bir hududdagi hamkorlar ishlab chiqaruvchilarni xom-ashyo bilan ta’minlashi
3	Ob-havo sharoiti			1	Xom-ashyo hosildorligi kuzgi ob-havo sharoitiga bog‘liqligi
<i>Mehnat resurslari</i>					
4	Demografiya		1		Hududning demografik salohiyati
5	Ishchi kuchi	1			Hududda ishchi kuchining mavjudligi
6	Xodimlar malakasi			1	Malakali xodimlar kamligi
<i>Ishlab chiqarish</i>					
7	Asosiy vositalar		1		Asosiy vositalar holati
8	Ishlab chiqarish unumdorligi	1			Ishlab chiqarish omillarining unumdorligi
9	Ixtisoslashuv			1	Hududning tarmoq va sohalar bo‘yicha ixtisoslashuvi
<i>Innovatsiya</i>					
10	Ilmiy yutuqlar			1	Ilg‘or innovation texnologiyalarni joriy etish
11	Ilmiy tadqiqot		1		Ilmiy loyihalar joriy etilishi
12	Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	1			Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi mavjudligi
<i>Infrastruktura</i>					
13	Suv, elektr		1		Hududda suv va elektro-energiyalarning holati
14	Transport	1			Aeroport, temir yo‘llar va avtomobilarning mavjudligi
15	Axborot kommunikasiya	1			Axborot kommunikasiya texnologiyalarning rivojlanganligi
<i>Moliya</i>					
16	Investitsiya	1			Investitsiya jalb qilinishi
17	Kredit		1		tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati uchun beriladigan kreditlar
18	Daromad	1			Xarajatlar qisqarishi evaziga daromad oshishi

¹³ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan korxonalar faoliyati uchun SNW tahlili sektorning barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Kuchli tomonlarni mustahkamlash, zaif tomonlarni kamaytirish bilan bir qatorda mehnat resurslari, ishlab chiqarish, innovatsiya, infrastruktura, moliyaviy muhim omillarga e’tibor qaratgan holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

SNW tahlili bozordagi raqobat holatini baholash, korxonaning ichki muhit omillarini tahlil qilishda qo‘llaniladi.


S – strength – kuchli - N – neutral – neytral - W – weakness - zaif

SNW tahlili tahlilining asosiy maqsadi ijobiy va salbiy resurslarni aniqlash va korxona uchun o‘sish nuqtalarini topishdir. Yuqoridagi 3-jadvalda O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan korxonalar faoliyatining SNW tahlili keltirilgan.

Dissertatsiya ishimizda, tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalar boshqaruv xodimlari soni, tayyor maxsulotlar hamda trikotaj mahsulotlari hajmlari o‘rtasidagi korrelyatsion-regression tahlillar o‘tkazildi. “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalarda olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlarida band bo‘lgan xodimlar sonining ortishi mahsulot - xususan, ip-kalava hajmining ko‘payishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ya’ni, ishlab chiqarish personalining ko‘payishi ishlab chiqarish quvvatining oshishiga, mashina va uskunalarining samaraliroq ishlatilishiga, natijada yakuniy mahsulot hajmining ko‘payishiga olib kelgan. Biroq, tahlil davomida yana bir muhim jihat aniqlangan: boshqaruv xodimlari sonining ortishi, aksincha, ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Boshqaruvchilar sonining haddan tashqari ko‘pligi, resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi va qaror qabul qilishdagi samarasizlik kabi omillar ishlab chiqarish sur’atlarining sekinlashuviga olib kelgan. Bu holat korxonalarda mehnat resurslarini optimal taqsimlash va boshqaruv tizimini qayta ko‘rib chiqish zarurligini yuzaga chiqarmoqda. Bundan tashqari, boshqaruv jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish, qaror qabul qilishda tezkorlik va aniqlikni ta’minlash, ishchi kuchining malakasini oshirish kabi choralar orqali butun korxona samaradorligini yanada yuqori darajaga olib chiqish mumkin bo‘ladi. Bu esa klasterning ichki ishlab chiqarish mexanizmini optimallashtirib, umumiy iqtisodiy natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonidagi tahlillar natijasida ushbu boshqarish mexanizmini takomillashtirish taklif etilgan (3-rasm).

Tadqiqot natijalari “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha asoslangan takliflarni taqdim etganmiz. Regression tahlil asosida ishlab chiqilgan takliflar yordamida korxonalarda mehnat unumdarligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish mumkin. Ushbu yondashuv boshqa yirik to‘qimachilik klasterlari uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal boshqaruv modeli sifatida qaraladi.

Integratsiyalashgan korxonalarda boshqaruv mexanizmini amalga oshirish



3-rasm. Korxonalarda boshqarish mexanizmini takomillashtirish¹⁴

Fikrimizcha, integratsiyalashgan korxonalarda boshqarish mexanizmini takomillashtirish mavjud iqtisodiy muammolarni maksimal darajada hal qilish va

¹⁴ Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

uning takomillashuvi va amalga oshirilishi ma'lum ketma ketlikda bo'ladi. Muammoli masalalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqilgan mexanizmi, korxonalar xavflarini minimallashtirish hamda boshqarish mexanizmini takomillashgan tizimini integratsiyalashgan korxonalar faoliyatiga joriy qilishga qaratilgan. Korxonalarda samarali boshqaruv mexanizmini shakllantirish va uni takomillashtirish korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion rivojlanishga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda boshqaruv tizimining takomillashuvi korxona resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va biznes strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Integratsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan biznes tuzilmalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Integratsiyalashgan tuzilmalarda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish yo‘llari, integratsiyalashgan sanoat korxonalarida materiallar oqimini boshqarishning zamonaviy yo‘nalishlari asoslangan. Integratsiyalangan korxonalarni boshqarishda divizional tuzilmalarni qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingan “UZTEX GROUP” klasteri tarkibidagi korxonalar uchun divizional boshqaruv tuzilmasi taklif etilgan.

“TEXTIL FINANCE NAMANGAN” MChJ, “UZTEX UCHKURGAN” MChJ, “UCHKURGAN TEXTIL” MChJ, “TEXTIL FINANCE KHOREZM” MChJ korxonalari paxta yetishtirish, tola ishlab chiqarish, ip-kalava ishlab chiqarish bosqichlariga ixtisoslashgan, “UZTEX GROUP” MChJ korxonasi esa ip-kalava ishlab chiqarish, tola ishlab chiqarish, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Biroq bu korxonalarni boshqarish tuzilmalari bir xil, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga moslashtirilmagan. Fikrimizcha, bunday korxonalarda boshqaruvni oqilona tashkil etish uchun mahsulot turiga ixtisoslashtirilgan tuzilmani qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mahsulot turiga ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmada qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga rahbarlik qilish bo‘yicha vakolatlar bitta rahbarga topshiriladi, u mahsulotning ushbu turi uchun javobgar bo‘ladi. Ikkilamchi vazifaviy xizmatlar (ishlab chiqarish, texnik va sotish) rahbarlari boshqaruvchi oldida hisobot berilishi kerak.

